

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA TARBIYA TURLARINI SHAKLLANTIRISH  
BORASIDA OLIB BORILADIGAN ISHLAR

Qodirova Go'zal Ergash qizi  
Urganch davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya:** *Boshlang'ich sinflarda ta'lif va tarbiya teng, o'zaro bog'liq holda olib boriladi. Har qanday jamiyat doimo o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda ta'lif tarbiyani amalga oshirib boradi. Bizga ma'lumki, bugungi kunda barkamol avlod tarbiyasini davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Shuning uchun ham bugungi kunda "Barkamol avlod" dasturini hayotga tadbiq etish orqali yosh avlod tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda umumiylig o'rta ta'lif muassasalarining ta'lif-tarbiya jaroyonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarbiya turlarini shakllantirishga e'tibor qaratilmoqda. Kichik muktab yoshidagi o'quvchilarda shakllantirilishi kerak bo'lgan tarbiya turlarini aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, nafosat tarbiyasini, estetik tarbiya, huquqiy tarbiya, fuqarolik tarbiyasini, ekologik tarbiya va iqtisodiy tarbiya kabilarga ajratish mumkin.*

**Kalit so'zlar:** ta'lif, tarbiya, metodika, boshlang'ich, axborot va h.k.z

Aqliy tarbiya shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat bo'lib, uni samarali yo'lga qo'yish asosida dunyoqarash shakllanadi. Abu Nasr Forobiyning e'tiroficha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o'zlashtirar ekan, borliqda tirik mavjudotning yaratilish tarixigacha bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi. Allomaning mazkur fikrlarini davom ettirgan holda Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni ilgari suradi: «Inson narsa va hodisalarning faqat tashqi sifati hamda xususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarni taqqoslaysa, bir-biri-bilan solishtirib ko'radi, o'z bilimlarining chinligini aniqlaydi».

Mutafakkir, shuningdek, odamlar tomonidan bilimlarni o'zlashtirilib borishi yangi bilimlarning yaratilishiga olib kelishini aytadi: «Ilmlar ko'pdir. Ular zamoni iqbolli bo'lib, turli fikr va xotiralar ularga qo'shilib borsa, ko'payadi. Odamlarning ilmlarga rag'bat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o'sha iqbolning belgisidir. (Ayniqsa) hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko'payishiga sabab bo'ladi».

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda ta'lif-tarbiya tizimiga innovatsion, ya'ni ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish davr talabi bo'lib kelmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxsida yaxshilik, mehribonlik qilish, shirinso'zlik bilan muomalada bo'lish kabi ma'naviy sifatlarni shakllantirishda o'qish, ona tili, musiqa darslarining imkoniyatlari juda kattadir. Chunki mazkur predmetlar bo'yicha darslar tuyg'ular va hissiyotlar asosida qurilayotgan mashg'ulotlardir. Shuning uchun ham

darslarda bolalarni tushunish, ularni his qilish, his tuyg'ularini qadrlashni o'qituvchi diqqat markazida turishi kerak.

Nafosat tarbiyasi – yoshlarni voqyelikdagi, san'atdagi, tabiatdagi, ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi nafosatni idrok qilish orqali, ularda go'zallika ijobjiy munosabat uyg'otish va o'zlarining hayot tarziga go'zallikni olib kirishni tarbiyalashdir. Nafosat tarbiyasi –eng avvalo xar bir yoshda badiiy hissiyot tuyg'ularini, badiiy didni tarbiyalashga qaratiladi. Nafosat tarbiyasi bugungi kunda shuning uchun ham muhimki, u har bir yoshni o'zini nazorat qilishga sa'y-harakatlarini tartibga solishga odatlantiradi. Nafosat tarbiyasining, mazmuniga xalqimizning boy madaniy merosini xalqning nafosatga oid bilimlarini badiiy didini xalqimizning ma'naviyatini, sog'lom turmush tarzini kirlitsak bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirilishi zarur bo'lgan tarbiya turlaridan yana biri bu iqtisodiy tarbiyadir. Iqtisodiy tarbiya ham shaxsning barkamol shakllanishining zarur shartidir. Yoshlarni iqtisodiy tarbiyalash ta'limning asosiy muammolaridan biri bo'lib kelgan. Iqtisodiy tarbiya o'quvchilarda tejamkorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob qilish qobiliyatini shakllantiradi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach, barcha jabhalarda islohatlar olib borilmoqda. Shu qatori ta'lim tizimida ham bir qator o'zgarishlar, islohatlar amalga oshirilmoqda. Jumladan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» ishlab chiqildi va qabul qilindi. Ushbu qonun va milliy dasturda ko'rsatib o'tilgandek bo'lajak mutaxassislarga iqtisod to'g'risida tushunchalar berish muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyoda yuz berayotgan morliyaviy inqirozning O'zbekiston sharoitida oldini olish yoshlardan iqtisodiy bilimlarni talab qiladi. Chunki ishlab chiqarishning asosiy qismida yoshlar faoliyat ko'rsatayapti. Shuning uchun ham yoshlarga iqtisodiy tarbiya berish orqali biz davlatimizni har tomonlama qudratli davlat ekanligini ko'rsata olishimiz kerak. Shu bois ham iqtisodiy tarbiyada – fan texnika yutuqlaridan oqilona foydalanishga e'tiborni kuchaytirish shu kunning muhim dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy tarbiya mazmuni Sharq mutafakkirlari tomonidan muntazam boyitilib, ilmiy asoslanib kelingan. Bu borada Al-Xorazmiy matematika fani inson hayotida asosiy o'rin tutishini alohida ta'kidlaydi. Abu Nasr Farobiy "Baxt saodatga erishuv haqida" asarida shunday yozadi: "Insonn o'z mablag'ini to'g'ri sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizg'anchiqlik qilish xasislikka olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboslikka yetaklaydi". A.Avloniy "Iqtisod deb, pul va mol kabi ne'matlarning qadrini bilmakka aytilur" yana "Hozirgi zamonda maqsadga yetmoq, xalqqa maqbul bo'lmoq uchun ilm va mol lozimdur" kabi qimmatli g'oyalarni olg'a surgan. Ahmad Yugnakiy "Hibbatul haqoyiq" da: "Mol-mulksiz kishi uchun bilim – bitmas-tuganmas mulkdir, kambag'al inson uchun bilim hisob-xatosiz hisobdir". Bu fikrdan shuni anglash zarurki, inson o'zining bilan ijtimoiy hayotga tejamkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi va o'z hayotini oqilona taashkil qiladi.

Yoshlarni iqtisodiy bilimlar bilan qurollantirishda milliy qadriyatlardan keng foydalanish yaxshi natija beradi. Yoshlarda iqtisodiy tushunchalarni shakllanishi

yurtimizning farovon va qudratli bo'lishga zamin bo'la oladi. Bu esa o'z navbatida yoshlarda dunyoqarashning kengayishi ona Vatanga bo'lgan muhabbatining ortishi, mehribonlikning yuzaga kelishi, yaxshi va yomonning farqiga borishi kabilar tarkib topadi.

Boshlang'ich sinflarda tarbiyaning bu turlarini shakllantirish va rivojlantirish maktab ta'liming asososiy vazifalaridan biridir. Bu borada olib borilayotgan ishlanishlar bilan tanishish, o'quvchilarda tarbiya turlarini shakllantirish metodlarini o'rganish bo'lajak boshlag'inch sinf o'qituvchilarining yaxshi pedagog bolib yetishishida juda ahamiyatlidir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishda baadiiy asarlarning o'rni juda katta. Turli janrdagi asarlarda tasvirlangan ijobiy va salbiy qahramonlarning sarguzashtlari bilan tanish orqali kichik yoshdagi kitobxonlar o'zlariga tegishli xulosa chiqaradi, ularning fazilatlarini egallashga, yomon illatlarini esa o'zida namoyon qilmaslikka intiladi. Shuning uchun ham bugungi kun yoshlarini kitob bilan do'st qila olishga intilish dolzarb masaladir. O'quvchilarga iqtisodiy tarbiya berish ularni tejamkor, tadbirkor bo'lib ulg'ayishlariga yordam beradi. Badiiy asarlar orqali ularga mehnatsevarlik, tejamkorlik sifatlarini singdirish iqtisodiy tarbiyaning dastlabki ko'rinishidir. Boshlang'ich sinflarda badiiy asarlarning eng ko'p o'rganiladigan janriy turi bu ertakdir. Ertak xalq og'zaki ijodida eng keng tarqalgan janr bo'lib, ularda kishilar hayotida uchraydigan oddiy hodisalar va fantastik sarguzashtlar hikoya qilinadi. Ertaklarning ko'pida real hayot tasviri fantastik elementlar bilan qo'shilib ketadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ertak bilan amaliy tanishtiriladi. Ertakning o'tkir maroqli syujeti, voqeа rivojidagi favqulodda, ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi; undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'nalishi, undagi ezgu kuchning – yaxshilikning doimo g'alaba qilishi bolalarni o'ziga tortadi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish shakli, bir xil so'z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta'sirchanligi, ifodali vositalarining jonliligi bolalar uchun juda qiziqlaridir. Ertakda qatnashuvchilar ko'pincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo'lgan yovuz, baxil, ochko'z obrazlarga bo'linadi.

Ertakning pedagogik qimmati shundan iboratki, bolalar unda to'g'rilik, halollik g'alaba qilganidan, kishilar qiyinchilikdan qutulganidan, ya'ni yaxshilik, ezgulik ro'yobga chiqqanidan va yomonlik, yozuvlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doim shunday bo'lishini istaydilar. Ertak bolalarda personajlarning xatti-harakatini muhokama qilib baholash ko'nikmasini o'stiradi. O'quvchilar ertakni tahlil qilish jarayonida kishillardagi qanday sifatlar sizga yoqadi? Nima uchun? ...nima uchun jazolanadi (yoki rag'batlantiriladi)? Nima uchun ertakdagi ba'zi qaxramonlarga xatto tabiat kuchlari ham yordam beradi, ba'zilaridan esa, aksincha, yuz o'giradi? kabi savollarga javob berish uchun o'ylaydilar, ertak qaxramonlarining xatti-harakatini muhokama qilib, uni baholashga o'rganadilar. Masalan, "Ur to'qmoq" ertagidagi asosiy fikr yaxshilikka-yaxshilik qaytishi, yovuzlik qoralanishini ifodalashdan iborat bo'lsa, "Donishmand" ertagida ahillikka undashdan iborat. Ertakda halq o'z hayotini o'zi hikoya qiladi, shuning uchun o'quvchilar ertakni o'qish bilan ma'lum davrdagi halq hayotini, o'ylari va orzu-istiklarini bilib oladilar. Ertak o'quvilar nutqini o'stirishda ham katta ahamiyatga ega. Ertak matni bog'lanishli

nutqni o'stirish uchun zarur material beradi. Kichik yoshdagi o'quvchilar ertakni juda qiziqib, obrazli ifodalarni va tasviriy vositalarni, shuningdek, ertakning o'ziga xos sintaktik qurilishini, gap tuzilishini saqlagan holda jonli aytib beradilar. Ertak ustida ishlashda bolalarni ertakni o'qishgagina emas, balki uni aytib berishga o'rgatish ham muhimdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. U. Nishonova "O'zbek xalq ertaklari". "Sangzor" nashriyoti – 2013.
2. T. G'afforova, E. Shodmonov, G. Eshturdiyeva. 1- sinf "O'qish kitobi". "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent – 2019.
3. T. G'afforova, Sh. Nurullayeva, Z. Mirzahakimova; 2-sinf "O'qish kitobi". "Sharq" K. Qosimova, S. Matchonov, X. G'ulomova va b. "Ona tili o'qitish metodikasi nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent – 2018.
4. M. Umarova, X. Xamroqulova, R. Tojiboyeva; 3-sinf "O'qish kitobi